Yurist maslahatchi

Yurist maslaxatchi

Muratova Umida Kurkmasovna

Tel: +99871 237-19-75

E-mail: lawyer@tiiame.uz.

Qabul kunlari: xar kuni (10:00-12:00)

Institut yurist maslaxatchisi oʻz faoliyatini Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 yanvardagi “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2733-sonli qarori hamda “Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining yuridik xizmati toʻgʻrisida”gi Nizomi asosida olib boradi. Yurist maslaxatchi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, “Institut yuridik xizmati toʻgʻrisida”gi Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Quyidagilar yurist maslaxatchi faoliyatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- institutning huquqiy qoʻllash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta’minlashni tashkil etish;
- institut tomonidan ishlab chiqilayotgan (qabul qilinayotgan) hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni olib borish;
- institutning qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash masalalarida ularning tuzilmalari ishini muvofiqlashtirish;
- institut xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va axamiyatini, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazishda ishtirok etish;
- shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da’vo ishlarini yuritish, institutning mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya kilinishini ta’minlash;
- professor-oʻqituvchilar, xodimlar va talabalarga oʻqish, ish va shaxsiy masalalar yuzasidan huquqiy maslaxatlar berish.